

## BOSHLANG‘ICH TA‘LIM TASHKILOTIDA IQTISODIY TA‘LIMNI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION YO‘LLARI

**Axmedjanova Feruza Kabulovna**

Toshkent shahar Yashnobod tumani 23-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

[axmedjanova23@gmail.com](mailto:axmedjanova23@gmail.com)

Boshlang‘ich ta‘limni rivojlantirish uchun “yangi”, “yangilik”, “innovatsiya”, “innovatsion jarayon” kabi birinchi ko‘rishda sodda, lekin aslida murakkab bo‘lgan tushunchalarni o‘zlashtirish zarur. Avvallari innovatsion masalalar faqat iqtisodiy tomonlarga ko‘rib chiqilgan. Biroq vaqt o‘tishi innovatsion faoliyat ta‘lim-tarbiya jarayonida keng qo‘llanila boshlandi. Mashg‘ulotni qiziqarli va samarali bo‘lishini ta‘minlaydi. Bu borada Boshlang‘ich yoshdagi bolalarni ta‘lim-tarbiya berishda kasbga qiziqtirish, bu borada bolani hisob ilmiga qiziqtirishning innovatsion yo‘llarini amaliyotga joriy etishni tahlil qilishga harakat qildik. [2]

«Innovatsion texnologiya» tushunchasi ta‘lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo‘llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullarini qamrab oladi. «Boshlang‘ich ta‘lim tizimida innovatsion texnologiyalar» deyilganda turli pedagogik yangiliklarni yaratish, qabul qilish, baholash, o‘zlashtirish va amalda tatbiq etish jarayonini boshqarish tushuniladi. Boshlang‘ich ta‘lim tashkilotlarda yaratilgan sharoit va imkoniyatlar eng so‘nggi innovatsiya namunalarini joriy etish uchun moslashtirilgani pedagoglarning ijodiy faolligini kuchaytirish uchun xizmat qilmoqda.

Bu borada boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiya berishda davlat o‘quv dasturi talablari va qoidalari asosida olib borilishi va davlat talablarida belgilab berilgan ta‘lim natijalaridan chetga chiqmagan holda amalga oshiriladi. Bu albatta bola shaxsining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga Boshlang‘ich yoshdagi bolalarni hayotga tayyorlashda hisob-kitob ilmini puxta egallagan, har tomonlarga yetuk fuqaro bo‘lishi bugungi kunning muhim talabidir. Bu borada boshlang‘ich sinflarda tarbiya berish bilan ta‘limning zamonaviy yo‘nalishlarini o‘rgatish ham lozim. Chunki bola ertangi kelajakni egalari sifatida o‘z shaxsiy hayotlarini o‘zlari quraoladigan bilimdon, ma‘naviy-axloqiy va intellektual jihatdan shakllangan barkamol avlod bo‘lishi lozim. Bu borada bolalarni avvalombor matematik tasavvurlarini shakllantirish, ularda hisob ilmiga bo‘lgan qiziqishi uyg‘otish lozim. Bunda bolaga iqtisodiy bilim berish modelini oiladan boshlansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki oila bolani hayotga, ta‘lim muassasasiga yo‘altiridaigan asosiy yacheykadir. Bola hisob ilmini o‘rganishni oilada ota yoki onaning erkalashlari natijasida ular tomonidan bolaga beradigan dastlab matematik ilmini o‘rgatishning amaliy asoslariga tayangan o‘yin va o‘yinchoqlar texnologiyasi orqali amalga oshiriladi. Bu bolaga nechta o‘yinchoq borligi va shu o‘yinchoqlar asosida nechta o‘yin amaliyotini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Bolada shu bilan birga mayda va katta qo‘l matorikasi ham shakllanib boradi. Va bolaga iqtisodiy bilimlarga bo‘lgan qiziqish intstenti boshlanadi. Albatta, bolani iqtisodiy bilmilarini shakllanishda unga ota-ona yoki davlat tomonidan yetarli darajada shart-sharoitlar yaratib berilishi talab etiladi. Bu borada turli matematik tasavvurlarni shakllantiradaigan anjomlar, o‘yinchoqlar, jihozlar bilan ta‘minlab berilishi lozim. Bola mana shu o‘yinchoqlar va anjom va jihozlar bilan o‘z tafakkurida hisob ilmini amaliy jihatdan tahlil qilish orqali o‘z tasavvurlarini, tajribalarini malakalarini va ko‘nikmalarini boyitib boradi. [5]

Jahon tajribasidan bizga ma‘lumki, qaysi davlat yoki xalq o‘z farzandlari uchun qancha ko‘p investitsiya sarflasa foyda va daramad shuncha ko‘p bo‘ladi. Bu borada tabiiy savol tug‘iladi bolaga investitsiya kiritishda ko‘proq qaysi sohalarini qo‘llab quvvatlash lozim. Albatta mamlakat iqtisodiyotining lokomotivi bo‘lgan axborot-kommunikatsiya texnolgiyalari, yengil va og‘ir sanoat, avtomobilsozlik, maishiy xizmat va turizm sohalarini bugungi dunyoning serdaromad biznes manbaiga aylanib bormoqda.[4]

Boshlang‘ich ta‘limda mahalla shunday faoliyat ko‘rsatishi kerakki bolajonlar ularning qurshovida jamiyat va davlat talab qilayotgan yigit va qizlar siyosiy, ma‘naviy, iqtisodiy jihatdan tarbiyalangan bo‘lsin. Shuning uchun ham ta‘lim – tarbiya jarayonlarida quyidagilarning shakllanishiga e‘tibor qaratilishi kerak. Bunda:

-har bir ota - ona boshlang‘ich ta‘lim – tarbiyasida eng faol ishtirokchi sifatida e‘tirof etilsin;

- boshlang'ich yoshdagi bolajonlar ta'lim – tarbiya tizimida o'zligini anglab borsin;
- boshlang'ich yoshdagi bolajonlar o'yin orqali olamni anglasin;

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi ta'lim – tarbiya tizimi yo'lga qo'yilgan taqdiridagina , biz yosh avlodni barkamollik sari yo'naltira olgan har tomonlama komil va barkamol insonni voyaga yetkazgan bo'lamiz.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentabrdagi “Boshlang'ich ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3955-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O'zbekiston Respublikasida Boshlang'ich ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi RQ-4312-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasining ilk va Boshlang'ich yoshdagi bolalarni rivojlantiriga qo'yiladigan Davlat talablari. –T., 2018.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 1059-son qarori